

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI





*Tarix fakulteti Milliy &
ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi 4kurs talabasi
Abduraxmonova Dilnozaning
bitiruv malakaviy ishi*

TAQDIMOTI

Mavzu: O‘zbekistonda milliy qonunchilik tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari (2005-2015 yillar)

Reja:


Kirish.

I BOB. O‘zbekistonda milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish jarayonida parlament islohotlarining ahamiyati

1.1. Davlat hokimiyat boshqaruvini demokratlashtirish, parlament nazorati va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid qonunchilik masalasi.

1.2 Qonunchilik tashabbusi huquqi

1.3 O‘zbekistonda parlament islohotlarining samaradorligini oshirishda siyosiy partiyalar vakillik demokratiyasining muhim ishtirokchisi sifatida.



II. BOB. “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini amalga oshirish masalalari.

2.1. Qonunlar loyihalarini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi

2.2. Ekologiya va tabiat atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi

2.3 Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotni erkinlashtirish sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati



Mavzuning dolzarbliligi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi milliy qonunchiligimizda xalqaro huquq normalarining inobatga olinganligi va mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bilan mosligi bilan ham izohlanadi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shunchaki qonunlar emas, balki jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda yaratilgan, ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'un qonunlar zarurligi bilan ham izohlanadi. Qonunlar inson huquqlari va manfaatlari himoyasiga xizmat qilishi kerak.



Tadqiqot maqsadi va vazifalari

- Davlat boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida parlament islohotlarining samaradorligini oshirish, O'zbekistonda milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish jarayonida parlament islohotlarining ahamiyati, davlat hokimiyat boshqaruvini demokratlashtirish, parlament nazorati va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid qonunchilik masalasi, qonunchilik tashabbusi huquqi, O'zbekistonda parlament islohotlarining samaradorligini oshirishda siyosiy partiyalar ishtiroki, qonunlar loyihalarini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi hamda "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasini amalga oshirishning ustvor yo'nalishlarini o'rganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi




Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati shu bilan
belgilanadiki, unda bildirilgan takliflar, umumlashtirilgan xulosalar Davlat boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida parlament islohotlarining samaradorligini oshirish, O‘zbekistonda milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish jarayonida parlament islohotlarining ahamiyati, davlat hokimiyat boshqaruvini demokratlashtirish, parlament nazorati va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid qonunchilik masalasi, qonunchilik tashabbusi huquqi, O‘zbekistonda parlament islohotlarining samaradorligini oshirishda siyosiy partiyalar ishtiroki, qonunlar loyihalarini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi hamda “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini amalga oshirishning ustvor yo‘nalishlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Ayni vaqtda mazkur bitiruv malakaviy ishi oliy ta’lim muasasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini samaradorligini oshirishda ham qo‘llanilishi mumkin.





1 bob. O'zbekistonda milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish jarayonida parlament islohotlarining ahamiyati
1.1. Davlat hokimiyat boshqaruvini demokratlashtirish, parlament nazorati va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid qonunchilik masalasi





O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 6-noyabrdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to`g`risida”gi, “O`zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarini amalga oshirishga yo`naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ko`rish to`g`risida”gi 320-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarini amalga oshirish bo`yicha Kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. Mazkur Qarorga binoan qonun ijrosini monitoring qilib borish, kompleks baholash maqsadida “Jamoatchilik kengashi” tuzildi.



“Jamoatchilik kengashi” tuzildi. Uning asosiy vazifalari va ustuvor yo`nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini kuchaytirish, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish jarayonlariga, shuningdek davlat boshqaruvining sifatidan qoniqishi o`shishiga ko`maklashish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to`g`risida jamoatchilikni xabardor qilishning samarali, amaliy mexanizmlarini belgilash, davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlardan va eng avvalo fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo`lgan qarorlardan aholi, jamoat birlashmalari keng foydalanishini ta`minlashga har tomonlama ko`maklashish va boshqa shu kabi muhim


vazifalar qo`yilgan



O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ushbu o`zgartish va qo`shimchalar hokimiyat va boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirish, “kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” prinsipi bosqichma – bosqich amalga oshirilishini ta`minlash, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlari faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, shuningdek hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro`yobga chiqarish borasidagi ma`suliyatini oshirish maqsadida kiritilgan.



Konsepsiyada Prezidenimiz tomonlaridan bildirilgan takliflar asosida 2014-yil 16-aprelda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi.



1.2. Qonunchilik tashabbusi huquqi

Qonunlar loyihalarini tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining prinsiplari va normalari hisobga olinadi. Qonunlar loyihalari qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiq bo‘lishi kerak. Qonunchilik tashabbusi huquqi sub’ekti qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritguniga qadar jamoatchilik fikrini o‘rganishni tashkil etishga haqlidir.

Qonunchilik tashabbusi huquqi



O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq quyidagilar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega:

- 1) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- 2) o‘z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- 7) O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi;
- 8) O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori.

1.3. O‘zbekistonda parlament islohotlarining samaradorligini oshirishda siyosiy partiyalar vakillik demokratiyasining muhim ishtirokchisi sifatida.

Respublikamizda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasini referendum orqali hal etilishi davlat va jamiyat hayotiga oid eng muhim masalalarni umumxalq muxokamasi orqali hal etilishi belgilangan konstitutsiyaviy normaning amalga oshirilayotganidan dalolatdir. Xalqimizning 2002-yil 27-yanvarda bildirgan irodasi natijasida mamlakatimizda ikki palatali parlamentni shakllantirish zaruriy huquqiy xujjatlar, ya’ni “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishiga asos bo‘ldi.

Respublikamiz siyosiy partiyalarining Qonunchilik palatasi saylovlarida ishtiroki 2003 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan “Oliy Majlisga saylov to‘g‘risida”gi qonuni bilan kafolotlangan. Ushbu qonunning 1-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (quyi palata) besh yil muddatga saylanadigan 150 deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining bir yuz o‘ttiz besh deputati xududiy bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi”





Siyosiy partiyalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzodlar ko‘rsatish ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

- birinchi bosqich, siyosiy partiyalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlar nomzodlarni aniqlash,**
- partiyaning savlovdagi ishtirokini qo‘llab quvvatlovchi saylovchilar imzolarini to‘plash.**



O'zbekistonda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi yo'nalishlari:

- 1. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish.**
- 2. Sud-huquq tizimini isloh qilish.**
- 3. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.**
- 4. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylv qonunchiligini rivojlantirish**
- 5. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish.**
- 6. Demokratik bozor islohati va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.**

2 bob “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini amalga oshirish masalalari.

2.1. Qonunlar loyihalarini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi

“Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2006-yil 11-oktyabrda qabul qilingan. Ushbu Qonunning maqsadi qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Tartibga solinadigan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qonunlar loyihalari quyidagi shaklda ishlab chiqiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlari va qonunlari loyihalari;
- 2) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlariga hamda qonunlariga o'zgartish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qonunlar loyihalari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi qonunlarini yoki ularning ayrim normalarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonunlar loyihalari. Qonun loyihasi, qoida tariqasida, bo'limlar, kichik bo'limlar, boblar va paragraflarga ajratiladi. Qonun loyihasi uning qabul qilinishi sabablari va maqsadlariga oid tushuntirishni qamrab olgan muqaddimaga ega bo'lishi mumkin.

2.2. Ekologiya va tabiat atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi.

Globalashuv jarayonida ekologiya muammosi davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi. Bugungi kunda uning xavfi hatto yadro xavf-xataridan ham dahshatliroq bo'lib, butun yer shari xalqlarini tashvishga solmoqda.

Muhtaram yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining "O'zbekiston buyuk kelajak sari" nomli asarlarida -"Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir" – deb ta'kidlagan edilar. Jumladan, ekologiya sohasidagi dolzarb masalalarga "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarlarida ham alohida e'tibor qaratgan edilar.

Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda qabul qilingan “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonuni to'rt bob va 27 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan vazifalar bajarilishini ta'minlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi R – 3562-sonli “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini fuqarolik jamiyatlari institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoyishini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan.

2.3. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni erkinlashtirish sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni erkinlashtirish sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalariga oid 2013-yilning 12-13 dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n uchinchi yalpi majlisida bir qancha muhim qonun hujjatlari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2013-yil 28-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlandi.

192 modda, 28 bob va IX bo'limdan iborat Byudjet kodeksi 2014-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirishi belgilandi. Ushbu kodeks O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2014-2015 yillar mobaynida kodeks normalarining amal qilishi va samaradorligi muntazam ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishi, zarur bo'lgan hollarda, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining ayrim normalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni belgilangan tartibda kiritishi belgilab qo'yildi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalarning davlat boshqaruvini takomillashtirishdagi ahamiyati, hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirish O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishning muhim asosi, O'zbekiston Respublikasida parlament nazoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari, ijro hokimiyati asoslarining hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq konstitutsiyaviy rivojlanishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining faoliyatini yanada kuchaytirish va boshqa masalalar atroflicha muhokama qilindi. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi islohatlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha takliflar bildirildi. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Hokimiyatlarning ochiqligi to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi, jazo tizimini liberallashtirish, sud-huquq sohasidagi islohotlar va inson huquqlari himoyasiga oid huquqiy me'yoriy hujjatlar, qonunlarni ishlab



ETIBORINGIZ UCHUN RAHMAT